BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH
ORGANIZATION OF INTEGRATED LESSONS IN THE PRIMARY EDUCATION PROCESS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES
ОРГАНИЗАЦИЯ ИНТЕГРИРОВАННЫХ УРОКОВ В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Maxsudova Guljahon Mansur qizi
Jizzax davlad pedagogika universiteti magistranti
Telefon:+998942459944

Annotatsiya: *Bu maqolada boshlang`ich sinf darslarida integratsion yondashuv asosida tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Boshlang`ich ta`limni tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning o`rni juda yuqoriligi, pedagogik texnologiya turlari, hamda ulardan foydalanish haqida misollar asosida ko`rsatib o`tilgan. Boshlang`ich sinflarda integratsiya jarayonini tashkil qilishning mohiyati hamda uning ta`lim jarayoniga samarasi haqida ma`lumotlar keltirib o`tilgan.*

Abstract: *This article discusses the use of pedagogical technologies in organizing lessons in primary school based on an integrative approach. The high role of pedagogical technologies in organizing primary education, types of pedagogical technologies, and their use are shown on the basis of examples. Information is provided about the essence of organizing the integration process in primary school and its effect on the educational process.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается использование педагогических технологий в организации уроков в начальной школе на основе интегративного подхода. На примерах показана высокая роль педагогических технологий в организации начального образования, виды педагогических технологий и их применение. Представлена информация о сущности организации интеграционного процесса в начальной школе и его влиянии на образовательный процесс.*

**Kalit so`zlar:** *Boshlang`ich ta`lim, pedagogik texnologiya, integratsiya, metod, metodologiya.*

Keywords: *Primary education, pedagogical technology, integration, method, methodology.*

Ключевые слова: *начальное образование, педагогические технологии, интеграция, метод, методология.*

Kirish

Hozirgi kunda Vatanimizda ta’limni rivojlantirish hamda tubdan takomillashtirish uchun bu sohaga juda katta e`tibor berilmoqda. Xususan, matematika, iqtisodiyot, xorijiy tillarni bilish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Bu tillarni o‘rganishlari uchun maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘yinlar va boshqa turli metod va usullardan foydalaniladi. Boshlang‘ich sinfda ingliz tili fani 1-sinfdayoq o‘rgatilishi

o‘quvchilarning til bilishi uchun yanada katta imkoniyat yaratadi. Bu tilda dars o`tish matematika fanida ham qo‘llanilsa, O‘zbekistonda ilm fan yanada rivojlanadi. Buni yanada rivojlantirish uchun albatta darslarda integratsiyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darslarda integratsiyani qo`llashda esa pedagogik texnologiyalardan foydalaning ta`limning yanada samarali tashkil etilishi hamda yaxshi natijani kafolatlaydi.

Adabiyotlar tahlili

Dastlab texnologiya tushunchasiga oydinlik kiritib o`tamiz. “Texnologiya” tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G‘arbiy Yevropada ta’limni isloh qilinish bilan bog‘liq ravishda kirib kelganligi ma’lum. Hozirgacha B. Bluj, J.Koroll, P.Y Galperin, V.I.Davidov, L.I.Zankov, Charlz Templ va Jenni Stillarning texnologiyalari ko`p foydalaniladi. O‘qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari B.P.Bespalko, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, M.I.Maxmudov, T.N.Ballo kabi aksariyat psixolog va didaktikachilar ilmiy tadqiqot ishlarni olib borganlar.

T.N. Ballo ―pedagogik texnologiya‖ tushunchasiga ta’rif berar ekan, uni o‘qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondoshuv-deb yuritgan, L.V.Zankov, T.Y.Galperin, bosqichli o‘qitish, G.K.Selevko hamda boshqa mualliflar esa mazmunli umumlashma sifatida qaraganlar..

Muammo. Ayni vaqtda pedagogik yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqot institutlari, xalq ta’limi muassasalari va oliy o‘quv yurtlari oldida o‘quv jarayonini loyihalashning eng maqbul, barcha turdagi o‘quv muassasalarida shakli, metod va vositalaridan qat’iy nazar tashkil etiladigan ta’lim jarayoni uchun birdek xizmat qiluvchi andozani yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlar ham qo‘lga kiritilgan, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarga biz pedagogik texnologiya va uning mohiyatini ochib beruvchi, chunonchi, B.P.Bespalko, M.V.Klarin, J.G‘.Yo‘ldoshev, M.O.Ochilov, N.Saidahmedov, K.Zaripov, N.N.Azizxo‘jayeva, O‘.Q. Tolipov, M. Usmonboyeva va boshqalar tomonidan yaratilgan adabiyotlar orqali xabardor bo‘lishimiz mumkin. Bizning tadqiqotimizda boshlang‘ich sinf matematika darslarida ta’lim texnologiyalardan foydalanish metodikasini o‘rganish ko‘zda tutilgandi.

Bir tarifda, pedagogik texnologiya-axborotlarni o‘zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma’no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bog‘liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga o‘rgatish jarayonidan iborat.

Boshqa bir tarifda esa u -ta’lim metodlari, usullari, yo‘llari hamda tarbiyaviy vositalar yig‘indisi: u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalari majmui sifatida qaralgan.

Pedagogik texnologiya-ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun qulay shakl va usulda uzatish va o‘zlashtirish jarayonidan iborat.

Demak, pedagogik texnologiya-insonga (ta’lim-tarbiya oluvchiga) oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat.

Shuningdek, hozirda pedagogik texnologiyalarning boshqa yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari empirik, kognitiv, evristik, kreaktiv, inversion, integrativ, adaptiv, inklyuziv pedagogik texnologiyalardan iborat. Bu yo‘nalishlardan biri integrativ pedagogik texnologiyadir.

Integrativ pedagogik texnologiya – (yaxlitlash) axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash uchun qo`llaniladi.

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta’lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o‘zida metodlar tizimi, ta’lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalariga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi bilan metodika tushunchasini ko`pincha talabalar adashtirib yuboradilar. Bu tushunchalarni farqlab olamiz. .Hozirgi kunda o‘qituvchilar pedagogik texnologiya haqida aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi natijasida uni xususiy metodikalar bilan deyarlik teng hisoblash hollari uchraydi. Aslida esa ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo‘lib, quyida ular haqida qisqacha bayon qilinadi.

Metod- grekcha metodos so‘zidan olingan bo‘lib tatbiq qilaman, yo‘naltiraman, ilmiy asoslayman degan ma’noni anglatsa, metodika- grekcha so‘z bo‘lib tushuntirishning yangi yo‘lini topaman, qidiraman, izlayman degan ma’noni anglatadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o‘qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli. Ular orasida faqat asosiy e’tiborni nimaga qaratilishida farqlar mavjud.

Texnologiyalarda ko‘proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo‘naltiruvchi tomonlari ko‘proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o‘zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarning turg‘unligi, ko‘plab «agar...»lar (agar o‘qituvchi iste’dodli bo‘lsa, agar bolalar qobiliyatli bo‘lsa, yaxshi ota-onalar bo‘lsa... kabilar) yo‘qligi bilan farq qiladi.

Ya’ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan hamma mutaxasislar tomonidan qayta tiklash va qo‘llash mumkinligi bilan juda ham individual bo‘lgan metoddan keskin farq qiladi.

Metod-biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishidan iborat. Bunda harakatni amalga oshirish yo‘li deb, bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo‘llash mumkin bo‘lgan bir nechta yo‘llardan oldindan ko‘zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo‘lga aytiladi. Masalan, savod o‘rgatish yo‘llari: oilada o‘rgatish, maktabda o‘rgatish, bog‘chada o‘rgatish, o‘qituvchi yordamida o‘rgatish, kitoblar, kompyuter, ko‘rgazma qurollar va boshqalar vositasida o‘rgatish. Shunga o‘xshash sanoqni, arifmetik amallarni o‘rgatishda ham yuqoridagiga o‘xshash yo‘llardan foydalanish mumkin. Shu yo‘llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda turli usullar qo‘llaniladi.

Bugungi kunda ta’limda “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar”: metodi, “Sinkveyn”, “BBB”, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o‘yin”, FSMU, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zig-zag”, “Oxirgi so‘zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanmoqda.

“Adashgan zanjirlar” usuli boshlang‘ich sinflarda biror bir ketma – ketlikni tiklash uchun qo‘llanadi. Bunda o‘qituvchi biror mavzu, tushuncha, algoritmga oid ketma – ketlikni alohida – alohida va tartibsiz qo‘yadi. O‘quvchilar tartibsiz joylashgan so‘zlarga mantiqiy

bog‘langan zanjirni tuzishlari kerak. Bu metodni 4-6 kishilik guruhda qo‘llash ham, butun sinf bilan ishlash imkoni ham mavjud .Masalan 4-sinf darsligidan “Noma’lum qo‘shiluvchini topish” qoidasi: ‘Noma’lum qo‘shiluvchini topish uchun yig‘indidan ma’lum qo‘shiluvchini ayirish kerak”, shunday o‘zgartiriladi:” qo‘shiluvchini ayirish topish noma’lum uchun yig‘indidan ma’lum kerak qo‘shiluvchi” So‘zlar alohida qog‘ozlarga yoziladi va ko‘rgazma taxtasiga betartib joylashtiriladi. O‘quvchilar tartibni tiklaydilar, yoki har bir guruhga so‘zlar to‘plami beriladi va guruhlar tartibini tiklaydilar. Bu texnologiya ham juda samarali pedagogik texnologiya hisoblanadi.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash hamda ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish, bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi. Bu pedagogik texnologiyadan o`qish savodxonligi, ona tili dars mashg`ulotlarida, tabiiy fanlar darslarida foydalanish yanada yaxshi samara beradi.

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo‘ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham foydalidir.

Xulosa

Bugungi kunda o‘qituvchilar darslarida nafaqat o‘quvchilarga ma’lum bilimlarni o‘rgatish, balki dars jarayonida o‘quvchida nafaqat matematik bilimlarni balki, balki bir darsning o‘zida integratsion dars o‘tish zamon talabiga aylanib ulgurdi. O‘qituvchi yaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan boshqa yana ko‘plab ta’limga yangicha yondashgan holda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi muhim sanaladi.

Darsda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi:

- o‘qituvchi va o‘quvchi, o‘quvchi va o‘quvchi hamkorligini shakllantirish;
- O‘quvchilarga zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma malakalarini interfaol usullar orqali yetkazish;

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini asoslay olishga imkon yaratish.

Xulosa qilib aytganda pedagogik texnologiyalardan foydalanib integratsion darslarni tashkil qilish o`quvchilar faolligini oshiradi, ta`lim sifat va samaradorligini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. M.F.Ibrohimova. Boshlang`ich sinflarda arifmetik amallarni o`rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Monografiya. 2021-yil.
2. Abdiyeva Z. Bilmasvoy bilimdonlar mamlakatida (Matn): Bolalar uchun ertak masalalar. -Buxoro: “Durdona”, 2018. – 84 b.
3. Qosimov F.M., Hakimova M., Safarova N. Boshlang‘ich sinflarda algebra elementlarini o‘rgatish. -Buxoro: “Durdona” 2015. -53 bet.

4. Abdullayeva F.N. Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayonlari. . Boshlang`ich ta`limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari.-Buxoro. 2021. -300 bet

5. Ibrohimova M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarini o‘tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.O‘zbekistonda ilmiy-amaliy Tadqiqotlar konferensiyasi 17-son. 2020. -342-343 betlar.

6. Ibrohimova M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarini online o‘tishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O‘zbekistonda uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashda yoshlarning o‘rni va roli. 2020, 21-23 betlar

7. Ibrohimova M. Improving integration in teaching arithmetic practices in primary school mathematics. Учённый XXI Века ISSN 2020, 31-33 betlar